

Date: 13th April-2026

MAKTABGACHA TA'LIMNI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH: TA'LIMDA REGGIO EMILIA YONDASHUVI

Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna

Guliston Davlat universiteti

o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

99899 916 03 71

E-mail:mabudafayziyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilayotgan ilg'or xalqaro tajribalar, xususan, Reggio Emilia yondashuvining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada mazkur yondashuvning bola shaxsini rivojlantirishdagi o'rni, uning ijodkorlik, mustaqil fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Reggio Emilia metodikasining asosiy tamoyillari – bolaga markaziy subyekt sifatida qarash, muhitning ta'limdagi roli, ota-onalar va pedagog-tarbiyachilarning hamkorligiga urg'u berilgan. Ushbu yondashuvning milliy maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari ham muhokama qilingan.

Abstract. This article analyzes the advanced international experiences used in the modern preschool education system, in particular, the theoretical foundations and practical significance of the Reggio Emilia approach. The article highlights the role of this approach in the development of the child's personality, its impact on the formation of creativity, independent thinking and communicative skills. It also emphasizes the main principles of the Reggio Emilia methodology - the view of the child as a central subject, the role of the environment in education, and the cooperation of parents and educators. The possibilities of integrating this approach into the national preschool education system are also discussed.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, Reggio Emilia yondashuvi, xalqaro tajriba, bola rivoji, ijodkorlik, ta'lim muhiti, pedagogik hamkorlik, innovatsion metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim tizimi.

Keywords: preschool education, Reggio Emilia approach, international experience, child development, creativity, educational environment, pedagogical cooperation, innovative methods, person-centered education, education system.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasi tez va jadal sur'atlarda taraqqiy etib, yangi yo'nalishlar va yondashuvlar, erta yoshdagi bolalarning bilim olishi hamda rivojlanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda, maktabgacha ta'lim tizimida bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Shunday ilg'or tizimlardan biri, Italiyada shakllangan Reggio Emilia yondashuvi bo'lib, u bolani mustaqil fikrlash, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan.



Date: 13th April-2026

Uning asoschisi italiyalik o'qituvchi va psixolog Loris Malaguzzi (1920-1994) hisoblanadi. U butun dunyoga Reggio Emilia uslubidagi erta bolalik ta'limining targ'ibotchisi sifatida tanilgan. [1]

Reggio pedagogikasining asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

- ✚ bola- faol va qobiliyatli shaxs;
- ✚ bola tug'ilgandan boshlab o'rganishga tayyor va o'z fikriga ega bo'ladi;
- ✚ pedagog yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi emas, balki sherik, kuzatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi sifatida bo'lishi zarur;
- ✚ bola o'zini ifodalashda nafaqat til, balki rasm, harakat, musiqa, o'yin, loy, tabiiy materiallar kabi ko'plab materiallardan foydalanishi darkor;
- ✚ muhit estetik, ochiq, tartibli va ijodiy bo'lishi kerak;
- ✚ o'quv materiallari esa, bolani mustaqil kashf qilishga undashi maqsadga muvofiq. [3]

Metodika pedagogik muhitda noodatiy materiallardan loy, tosh, qum, yog'och, metal zarralari, mato, iplar, paranda patlari, har xil turdagi qog'ozlar va kartonlar, daraxt shox-shabballari, daraxt po'stlog'i, turli quruq o'simliklar, ularning urug'lari, yong'oqlar, chig'anoq va boshqa materiallar bolalarga ijod uchun kerakli vosita bo'lishi mumkin. Yog'och, tosh yoki chig'anoqlar kabi tabiiy elementlar bolada hissiy tadqiqotlarni boshlashi mumkin. Pedagoglar tayyor o'yinchoqlarga tayanish o'rniga, bolalarni o'z kashfiyotlarini yaratishga undaydigan noodatiy materiallardan foydalanishga undash taklif etiladi. Oddiy buyumlar bola tasavvurida har qanday kerakli buyumga aylanishi mumkin. Pedagoglar bolalarning huddi shu qiziqishlarini qo'llab -quvvatlashlari, ularga ergashishlari zarur.

Reggio pedagogikasi ta'lim jarayonlari o'yinga asoslangan bo'lib, bolalarga o'z qiziqishlarini kashf qilish va o'rganish uchun amaliy izlanishlaridan foydalanish imkonini beradi. Metodikani olib borishda o'yin vosita sifatida ishlatilib, bolalar o'zlarini o'rab turgan dunyoni o'rganish uchun barcha his-tuyg'ulardan foydalanishga undaydi. [3]

Pedagoglar o'yinlarni tashkil etish jarayonida tayyor o'yinchoqlarga tayanish o'rniga, bolalarni o'z kashfiyotlari bilan yaratilgan noodatiy materiallardan tayyorlangan o'yinchoqlardan foydalanishga undash zarur. Oddiy buyumlar bola tasavvurida har qanday kerakli buyumga aylanishi mumkin. Pedagoglar bolalarning huddi shu qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashlari, ularga ergashishlari, o'yinni qiziqarli nuqtasiga chiqishga imkon berishi zarur.

Reggio pedagogikasida "Atrof-muhit" tushunchasi keng manoga ega bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: jismoniy muhit, ijtimoiy muhit, madaniy muhit, psixologik muhit. [4] Jismoniy muhit oz ichiga guruh xonasini, undagi jihozlarni, o'yinchoqlarni, ta'limda foydalanish uchun mo'ljallangan didaktik materiallarni, tabiatni, qurilshlarni o'z ichiga oladi. Bu jihozlardan unumli foydalanish, pedagogikaning ajralmas shartidir. Bola atrofidagi kattalar, ota-onalar, pedagog-tarbiyachilar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotlar ijtimoiy muhitni tashkil etadi. Reggio metodikasiga asosan bolani o'rab turgan madaniy muhitda urf odatlar, qadriyatlar, til, estetik me'yorlar madaniy muhit



Date: 13th April-2026

hisoblanadi. Psixologik muhitda esa, bola uchun xavfsiz, erkin, qulay bo'lishi, o'zini boshqalar tomonidan qadrlanganini his qilishi, yaxshi kayfiyatda bo'lishiga sharoit yaratiladi. Bu talablardan kelib chiqib, pedagog-tarbiyachilar bolalarning o'sishi va rivojlanishida barcha jihatlarni hisobga olgan holda, muhitni ongli tarzda shakllantirishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda Reggio Emilia pedagogikasini qo'llash -bu nafaqat o'quv dasturlarini boyitish, balki har bir bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashadigan, uning individual jihatlarni ochib beradigan ta'lim madaniyatini shakllantirishdir.

Reggio yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida ota-onalar, muhit va tarbiyachilar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytiradi. Bu esa, ta'lim jarayonini to'laqonli, tizimli va izchil tashkil etilishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda Reggio Emilia pedagogikasini qo'llab borish natijasida ta'lim oluvchilarning xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.hatching-dragons.com/blog/loris-malaguzzi-and-the-reggio-emilia-approach>
2. <https://earlyexcellence.com/practice-and-pedagogy/reggio-emilia-approach/>
3. Y.Risyukova, M.Pardayeva, Z.Sangirova, S.Mo'minova, S.Matkarimova. Reggio Pedagoikasi: O'ZBEKISTON TA'LIMINI RIVOLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-MERODIK MARKAZI. Pedagoglar uchun tavsiya.T.:2025
- 4.G.E. Ergasheva. REGGIO EMILIA YONDASHUVINING MAKTABGACHA TA'LIMDAGI AHAMIYATI. Vol.65No.1(2026): TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI.65-SON.1-TO'PLAM.

